

MILLIY ADABIYOTLARDA AYOL OBRAZINING SEMANTIK VA KOGNITIV JIHATLARI

Kamola Shuhratovna IKRAMOVA

tadqiqotchi

Samarqand shahridagi Prezident maktabi

Samarqand, O'zbekiston

e-mail: kamolaikramova471@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Abdulla Qodiriy va Jeyn Ostin asarlari misolida milliy adabiyotlarda ayol obrazini shakllantirishning semantik va kognitiv jihatlari gender va madaniy kodlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Lingvokognitiv yondashuv til vositalari va konseptual tuzilmalar o'zbek va ingliz madaniy an'analarida ayol haqidagi tasavvurlarni qanday aks ettirishini aniqlashga imkon beradi. Tadqiqotda universal gender arxetiplari bilan milliy qadriyatlar, ijtimoiy-me'yoriy normalar va mental qarashlarning o'zaro ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan. Natijada, ayol obrazi badiiy matnda individual-mualliflik va jamoaviy-madaniy qarashlar kesishadigan murakkab semiotik konstrukt sifatida namoyon bo'lishi isbotlangan

Tayanch so'zlar: gender filologiyasi, lingvokognitiv tahlil, ayol obrazi, Abdulla Qodiriy, Jeyn Ostin, milliy adabiyot, madaniy kodlar.

СЕМАНТИКО-КОГНИТИВНЫЕ АСПЕКТЫ ЖЕНСКОГО ОБРАЗА В НАЦИОНАЛЬНЫХ ЛИТЕРАТУРАХ

Камола Шухратовна ИКРАМОВА

Исследователь

Президентская школа в городе Самарканде

Самарканд, Узбекистан

e-mail: kamolaikramova471@gmail.com

Аннотация

В данной статье на материале произведений Абдуллы Кадыри и Джейн Остин исследуются семантические и когнитивные аспекты формирования женского образа в национальных литературах с учётом гендерных и культурных кодов. Применение лингвокогнитивного подхода позволяет выявить, каким образом языковые средства и концептуальные структуры отражают представления о женщине в узбекской и английской культурных традициях. Особое внимание уделено взаимодействию универсальных гендерных архетипов с уникальными национальными ценностями, социально-бытовыми нормами и ментальными установками. В результате показано, что женский образ в художественном тексте функционирует как сложный знаковый конструкт, в котором пересекаются индивидуально-авторское и коллективно-культурное видение.

Ключевые слова: гендерная филология, лингвокогнитивный анализ, женский образ, Абдулла Кадыри, Джейн Остин, национальная литература, культурные коды.

Ayollar obrazi har bir millat adabiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarlarda yaratilgan ayol obrazlari orqali muayyan xalqning turmush tarzi, an'ana va urf-odatlari, oilaviy munosabatlari hamda jamiyatdagi axloq qoidalarini anglab olish mumkin. Zero, asardagi ayol timsoli orqali o'sha davr jamiyatining holati va ma'naviy muhiti yaqqol namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, ingliz va o'zbek adabiyotlaridagi ayol obrazlarini qiyosiy o'rganish orqali ikki turli madaniy muhitda ayolning ijtimoiy mavqei va gender rollari qanday shakllanganini tahlil qilish muhimdir. Shu ma'noda, XIX asr ingliz adabiyotining yirik vakili Jeyn Ostinning "Aql va hissiyot", "Mensfield Park" va "Emma" romanlari hamda o'zbek milliy romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlarida gender rollari, ayolning oila va jamiyatdagi o'rni qanday badiiy aks etganini qiyosiy o'rganish har ikki adabiy an'anadagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Abdulla Qodiriy ijodi o'zbek xalqining tarixiy ijtimoiy hayotini badiiy yoritib, milliy qadriyat va an'analarni realistik ravishda tasvirlashi bilan ahamiyatlidir. Adibning tarixiy romanlari "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" orqali o'tmishdagi o'zbek jamiyatida ayollarning o'rni va taqdiri haqida ko'p ma'lumot olamiz. Ularda "ona" va "ayol" obrazlari vositasida o'zbek oilalarining turmush tarzi, milliy marosim va urf-odatlarning o'ziga xosligi juda jonli misollar orqali ifodalangan. Darhaqiqat, "O'tkan kunlar" romanida muhim voqealar ayol qahramonlar atrofida kechadi: asarda turli yosh va tabaqadagi ayollar galereyasi yaratilgan bo'lib, ular orasida Kumushbib, Zaynab, an'anaviy dunyoqarashga ega O'zbek oyim, Oftob oyim va Oysha buvi kabi obrazlar bor. Bu personajlar orqali adib XIX asr oxiri o'zbek oilalari, ayollarning turmush sharoiti va jamiyatdagi mavqeini ko'rsatadi.

A. Qodiriyning ayollar obrazini yaratishdagi asosiy maslagi o'tmishdagi feodal tuzumda ayollar ko'rgan zulm va kulfatni ochib berishdir. Olib borilgan tahlillarga ko'ra, Qodiriy romanlarida ayollarga bunchalik ko'p e'tibor qaratilishining boisi shundaki, "o'tmishda feodal istibdodning zulmi, jabrini erlardan ko'ra ayollar ko'proq tortgan" [7;86]. Shu sababli, adib o'z asarlarida

ayollar qismati orqali ijtimoiy adolatsizliklarni tanqid qilgan holda, ularning azob-uqubatlarini marhamat va hamdardlik bilan tasvirlaydi. Masalan, “O‘tkan kunlar”da bosh qahramon Otabekning sevgilisi Kumush qutidorning qizi sifatida qadrlil va iffatli obraz qilib berilgan. U o‘zining mehr-muhabbati, sadoqati va mu‘tabar fazilatlari bilan asarda ideal sharqona yosh ayol sifatida gavdalanadi. Biroq an‘analar ta‘sirida Otabek ikkinchi bor uylanishga majbur qilinganda, Kumushning qalbi jarohatlanadi. U o‘z his-tuyg‘ularini ochiq bildirmasdan, yoshiga xos sharm-hayo bilan yashirin o‘tkir dardni ich-ichidan kechiradi. Romanda qizlarning turmush qurar ekan, o‘z quvonchini yaqinlaru begonalardan yashirishi: sirdan ko‘z yosh to‘kkan holda, ichlarida esa baxtli nikohni intiqlik bilan kutishi aniq-tiniq ochilgan. Kumushbibining o‘zini ana shunday nafosatli, hayoli tutishi orqali o‘zbek ayoliga xos iffat va nazokat tasvirlangan. Binobarin, Qodiriy asarlaridagi ko‘pchilik ayol obrazlari mazluma, kuyunchak, fidoyi va muhabbatga to‘la xotin-qizlar taqdirini aks ettiradi.

Badiiy obrazning ishonarli chiqishi lisoniy vositalarning yozuvchi tomonidan naqadar o‘z o‘rnida qo‘llanilishi bilan bog‘liq. Adabiy qahramonning harakatlari o‘quvchida shubha uyg‘otmasligi, uning xatti-harakatlari va o‘ylari xarakter ichki mantig‘iga mos kelishi ijodkordan yuqori darajadagi psixologik mushohada, madaniy-konseptual bilim va lisoniy mahoratni talab etadi. “O‘tgan kunlar”dagi O‘zbek oyim obrazi ana shunday yetuk badiiy mahorat mahsulidir. O‘zbek oyim – o‘zbek milliy mentalitetini ifoda etuvchi, urf-odatlarga so‘zsiz itoat qiluvchi qat’iy va ta’sirchan ayol timsoli. U nafaqat Yusufbek hoji kabi yuksak martabali odamni, balki aql-idrokli, ilg‘or fikrli Otabekni ham o‘z irodasiga bo‘ysundirishga intiladi. Bu voqelikni yozuvchi yuqori pardalarda tasvirlaydi va O‘zbek oyimning lisoniy ifoda tarzi orqali ayol obrazining ko‘p qirrali kognitiv shakllanishini ta‘minlaydi.

Romandagi ota-ona va farzand o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, ayniqsa, Yusufbek hojining Otabekka qilgan nasihatlaril lisoniy jihatdan kuchli emotsional va ma‘naviy yukka egaligidan tashqari, O‘zbek oyim istagining amalga oshirililishi nuqtai nazaridan jamiyatda gender tenglikning namunasi hamdir: “O‘g‘lim, san

onangning gapiga achchig‘lanma. Ul har narsa desa faqat Marg‘ilondan uylanganingga qarshilig‘idan aytadir. Ammo mendan so‘rasang, Marg‘ilondag‘i na qudamiz va na kelinimizni hech bir vajh bilan kamsita olmayman, balki bizga quda bo‘lmoqqa eng muvofiq kishilar edi, balli o‘g‘lim, deyman. Saning tinib-tinchishing, o‘tib-unishing uchun quvonmag‘an ota-ona sog‘qa hisoblanmaydir. San bunga yaxshi ishon. Ammo bizning hozirgi ba‘zi bir ra‘ylarimiz sanga yotishib kelmas ekan, bunga haqqing ham bor, lekin ikkinchi tarafdin bizni ham haqsiz tashlab qo‘yma. O‘g‘lim, bizning sandan boshqa umid nishonimiz, hayot quvonchimiz yo‘q. Dunyoda ko‘rib o‘taturg‘an barcha orzumiz, havasimiz faqat sangagina qarab qolg‘an. Biz xudoi taolog‘a minglab shukur aytamizkim, san boshqalarning farzandidek eslikhushlik bo‘lding; kishilardek sen bilan iftixor qilolmasaq-da, san orqalik xijolat chekmasimizga ishondik. Ayniqsa onangning saning tufayli kechiraturgan umidlari tobora ortib bordi. Bu kun onang saning oldingg‘a tiz cho‘kib va onang ko‘ngli uchun men ham orag‘a tushib sandan so‘raymiz: san o‘z xohishing yo‘lida uylangan ekansan, rafiqang sanga muborak bo‘lsin. Eslik da‘vosida yurgan ota-onang tilagi albatta shundan boshqa bo‘lmas. Shu bilan birga saning sababi vujuding bo‘lg‘an bir kishi o‘z hayoti ichida bolasi orqaliq bir orzu-havas kechirmakchi... Uning bu orzusig‘a haq berasanmi, yo‘qmi yana ixtiyor o‘zingda...” [6:135].

Yusufbek hojining bu nutqi ota mehri, voyaga yetgan o‘g‘ilga nisbatan ishonch va shu bilan birga, milliy tafakkurni ifodalovchi axloqiy konseptlar (umid, orzu, farzand, ibrat)ning lingvokognitiv tarzda to‘planishidir. Otabekning o‘zini tutishi, mulohazali javoblari ham ayol obrazlarini shakllantirishda muqobil kognitiv uslub sifatida namoyon bo‘ladi: “Aqllik kishilarning o‘g‘li ustidan qilg‘on ishlari albatta noma‘qul bo‘lmas”, – deb javob qaytaradi u [6:134].

Bu kabi satrlarda Otabekning nutqida an‘anaviy axloqiy kategoriyalar (aql, adolat, kattaga itoat) markaziy konseptlar sifatida o‘z ifodasini topadi. Ayol obrazining shakllanishidagi lingvokognitiv xususiyatlar esa O‘zbek oyim va Zaynab obrazlarining Kumushbibiga nisbatan qarama-qarshiligida o‘zining cho‘qqisiga yetadi. Xususan, O‘zbek oyim o‘g‘lini Marg‘ilonda qolib ketishiga

sababchi bo'lgan Kumushdan bir qadar norozi bo'lsa, Zaynab va Kumush munosabatida kundoshlik, iffat, baxt, adolat kabi ma'naviy-konseptual mezonlar lisoniy muammolarga aylanadi. Tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, "O'zbek oyim – o'zbek ayoli, ayol bo'lganda ham Toshkentning man-man degan ayollari uning soyasiga ko'rpacha yozadi. Otabek ota-onasining rozilgisiz uylanadi, yana kimga, «bir andi»ga (O'zbek oyim so'zi). Bu ularning, ayniqsa, onasining orzu-havasini chilparchin qildi, ta'bir joiz bo'lsa, bu ularning yuzini yerga qaratish bilan barobar edi. O'zbek oyim o'g'liga nisbatan «to'nini teskari kiyib oldi», hatto Marg'ilondan kelgan o'g'li bilan ko'rishmaydi, bir necha bor kelib-ketishiga e'tibor ham bermaydi, eri Yusufbek hojiga dashnom so'zlarini yog'diradi: «O'g'ul o'sdirishni, o'g'ul tiyishni bilmadingiz... endi ixtiyor menda: ul kelguncha, bir yaxshi joyga unashayinda, kelgandan so'ng to'yni ham jo'natib yuborayliq"! [1].

Umuman, "O'tkan kunlar"dagi Zaynab obrazi esa alohida e'tiborga molik. U Otabekka onasi tomonidan olib berilgan ikkinchi xotin sifatida tasvirlanib, an'anaviy ko'pxotinlik tizimining murakkab oqibatlarini namoyon etadi. Zaynabning hayotiy fojiasi quyidagi dialogda to'la namoyon bo'ladi: "Menga sizning mizojingiz kerak emas... O'zingiz!.. – dedi va yig'lab yolborg'an holda Otabekning quchog'iga o'zini tashladi. Otabek Zaynabning shu qadar yurak dardi borligini birinchi martaba bilar edi. Bechora Zaynab jonsiz haykalni o'pib quchoqlar va yolborar edi" [1;308].

Bu ibora ayolning ichki yurak nidosini, noodatiy lisoniy ifoda orqali aks ettiradigan kognitiv cho'qqidir. Bu yerda "mizoj" va "o'zingiz" so'zlari orasidagi semantik distansiya – muhabbatdagi ichki ziddiyatni anglatadi. "Mizoj" so'zi Zaynabning eri tomonidan qabul qilinmaganligiga ishora qilsa, "o'zingiz" so'zi tuyg'u va xohishning yuksak nuqtasiga ishora qiladi.

Zaynab kundoshi Kumushga nisbatan hasad va adovat tuyg'ularini namoyon qiladi; bu nafaqat ikki xotin o'rtasidagi muammo, balki ko'pxotinlikning oilaviy baxtga soya solishiga ishora sifatida ko'riladi. Bechora Zaynab o'zi qo'l urgan fojيانing dahshatidan jinni bo'lib qoladi. Ammo Otabekka bo'lgan muhabbati bois u yillar davomida majnuna holda har kechasi umr yo'ldoshini qabristonda ilhaq

bo‘lib kutadi. U Otabekning qachondir Kumush qabriga kelishini bilar edi. Va shunday kun keladi:

”Kecha oydin, qabriston tib-tinch, uzog‘roqdan Qur‘on tovushi eshitilar edi... Qur‘on oyatlari qabriston ichiga og‘ir ohangda oqar edi. Qabr yonig‘a tiz cho‘kkan yigitning ko‘z yoshlari ham Qur‘on oyatlariga qo‘shilib oqar edi. Biror soatdan keyin tilovat to‘xtaldi. Otabek holsizlanib oyog‘ uzra turdi va orqasidag‘i yarim yalang‘och ko‘lagani ko‘rib bir necha qadam qabr tomonga tislandi... Ko‘laga yaling‘ansimon unga yaqin yurib keldi...

– Kim bu?

– Men Kumush!..

Otabek tovush egasini tanidi. Bu majnuna Zaynab edi.

– Ket mundan!

– Men Kumush! – dedi yana Zaynab, ammo ketmay iloji qolmadi. Zeroki, dunyodag‘i eng yaqin kishisi unga «ket!» amrini bergan edi. Zaynab orqasig‘a qaray-qaray Otabekdan uzoqlashdi. Otabek qaytib unga qaramadi, qabr yoniga tiz cho‘kdi ” [1;376].

Darhaqiqat, Abdulla Qodiriy Zaynab timsolini yaratishda buyuk mahorat ko‘rsatdi. Hatto, Zaynab muallif va kitobxonlar muhabbatiga sazovor bo‘lgan go‘zal Kumushni o‘ldirsa-da, yozuvchi Zaynabga nisbatan ichki hamdardligini, uning ham baxtga haqqi borligini yashira olmaydi. Adib Zaynabning fojeiy taqdiri orqali o‘quvchida an‘anaviy tartiblarning adolatsiz oqibatlariga nisbatan tanqidiy munosabat uyg‘otadi. Shu tariqa, A. Qodiriy ko‘pxotinlilik muammosini ko‘tarish orqali, go‘zal Kumushning sadoqatli muhabbati ayanchli o‘limga, suluv Zaynabning oddiy ayollik orzulari an‘ana qurboniga aylangani fojeasini ko‘rsatadi. Zaynab – ayol ruhiyatining lingvokognitiv dramatizmi va semantik parchalanishi timsolidir. Muhabbatga tashnalik, kutilmagan qarshiliklar, jinnilik chegarasiga borish orqali Zaynab obrazi faqat ijtimoiy emas, balki metafizik toifaga ko‘tariladi. Bu obrazning shakllanishida esa, lisoniy mexanizmlar (dialog, ichki monolog, kataforik/anaforik murojaatlar, semantik konnotatsiyalar) o‘zining boy imkoniyatlarini namoyon qiladi. Ko‘rinib turibdiki, “O‘tgan kunlar” romanida ayol

obrazlari milliy kodlar, madaniy an'analar va shaxsiy kognitiv dunyoning o'zaro bog'liq tizimida yaratiladi.

Qodiriyning ikkinchi yirik asari "Mehrobdan chayon"da ham ayol qismati muhim o'rin tutadi. Roman voqealari feodal istibdodiga xalq kurashini ifodalasada, uning markazida uylanish va oilaviy mojarolar tuguni yotadi. Bu asardagi ayrim ayol obrazlar ozodlikka intilish timsoli sifatida talqin etilishi diqqatga sazovordir. Ayni xususiyat "Mehrobdan chayon"dagi Ra'no obrazida namoyon bo'ladi. U o'z baxti va erkinligi yo'lida diniy xurofot va mutaassiblikka qarshi kurashayotgan qiz sifatida gavdalanadi. Asarda murtad va ikkiyuzlamachi mulla Abdurahmonning yovuzligi, Ra'no kabi yosh qizlarning azob-uqubatlari va ozodlikka intilishi kuzatiladi. Qodiriy bu orqali qadim an'analar bilan yangi zamon tafakkuri to'qnashuvini, xususan, ayolning o'z hayoti haqida qaror chiqarishi uchun intilishini tasvirlaydi.

"Mehrobdan chayon" romanida ham ayol obrazlari orqali jamiyatning o'sha davrdagi illatlari fosh etiladi. Jumladan, jamiyatdagi diniy muxolifat, adolatsizlik va ayolning mash'um taqdiri tasvirlanadi. Xususan, nikoh borasidagi noqonuniy ishlar, din niqobi ostida xaspo'shlangan ma'naviy bo'shliqlar ayollarning yengilmas matonati bilan qarama-qarshi qo'yiladi. Asarda ayollar ozodligi mavzusi bilvosita ko'tarilgan bo'lib, qaysar ayol qahramon yordamida u jamiyatning ahloqiy muammolarini yoritadi. Shu tariqa, Abdulla Qodiriy o'z asarlarida ayol obrazlari orqali milliy mentalitet va qadriyatlarga xos jihatlarni, shuningdek, ayollarning og'ir hayotiy holatini haqqoniy aks ettirdi. Adib yaratgan Kumush, Zaynab, Ra'no kabi obrazlar haqiqiy hayotiyligi, ziddiyatli ichki kechinmalari va fojeiy qismati bilan e'tiborga molikdir. Ular orqali Qodiriy bir tomondan o'zbek ayolining iffat, sadoqat va ma'sumalik bobida tengsizligini ifodalasa, boshqa tomondan o'sha davr ijtimoiy muammolarini (ko'pxotinlik, ma'rifatsizlik, diniy tabular) tanqid qiladi. O'zbek jamiyatida ayollar qanchalik taqdirga tan berib yashaganligi, ularning sabr-toqati va matonati madh etiladi. Shu bilan birga, adib ayrim personajlar qismatiga nafasat bilan yondashib, ayollarning baxt va erkinlikka loyiq ekanini ilg'or fikr tarzida ilgari suradi.

Jeyn Ostin o‘z asarlarida ingliz jamiyatining XIX asr boshlaridagi holatini nozik yumor va ironiya orqali tasvirlab bergan. Uning romanlari, xususan “Aql va hissiyot” (1811), “Mensfield Park” (1814) va “Emma” (1816), ingliz qishloq hayotiga doir bo‘lib, u yerdagi ayollarning turmush tarzi, ijtimoiy maqomi va shaxsiy orzu-istaklari o‘ta realistik tarzda aks etgan. J. Ostin ijodining markaziy mavzusi ayol va nikoh masalasidir: u turmush qurishni nafaqat romantik muhabbat, balki iqtisodiy va ijtimoiy zarurat deb ko‘rsatadi. Ayniqsa, J. Ostin hayot kechirgan davrda Angliyada mulkiy huquqlar masalasida ayollar juda cheklangan edi: yer-mulk asosan erkaklar orqali meros qilinar, qizning boyligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri erga o‘tishini ta‘minlovchi qonun va urflar mavjud edi. Masalan, “Aql va hissiyot” romanida Dashvud xonimlarning otasi vafotidan so‘ng butun mol-mulk uzoq qarindosh – erkak merosxo‘rga o‘tib ketadi, natijada qizlar va onasi moddiy ta‘minotdan mahrum qoladilar. Bu holat o‘sha davrda ayollar uchun moliyaviy barqarorlik faqat muvaffaqiyatli turmush orqali erishiladigan maqsad bo‘lganini ko‘rsatadi. Adibaning o‘zi ta‘kidlaganidek, o‘sha davrda xotin-qizlar uchun turmush qurish ko‘p hollarda ehtiros yoki istakdan tashqari, iqtisodiy zarurat hisoblangan [3].

Jeyn Ostinning ayol qahramonlari o‘sha davr tipik xulq-atvori va qadriyatlari ichida yashab, ularni ma‘lum ma‘noda ifodalaydi. Ularning aksariyati aqlli, zukko va o‘z qadr-qimmatini anglaydigan ijobiy obrazlardir. Masalan, “Aql va hissiyot”dagi opa-singillar Elinor va Marianna obrazlarida Ostin aql bilan his tuyg‘u o‘rtasidagi muvozanatni qiyoslaydi: Elinor aql-idrok va sabr-bardoshni ifodalasa, Marianna romantik hissiyotlarga berilib ketadi. Asar oxirida har ikkisi uchun ham turmush qurish o‘ziga xos baxt va saboq manbai bo‘ladi: Elinor uzoq kutgan sevgisiga yetishsa, Marianna hissiyotlarini jilovlab, hayotda mustahkam baxt topadi. Bu syujet orqali Ostin ayolning his va aqlni uyg‘unlashtirib, to‘g‘ri tanlov qilishini targ‘ib etadi. Shu bilan birga, ushbu nikohlar iqtisodiy jihatdan ham maqbul ekanligi (Elinorning sevgan yigiti Edvard kamtar bo‘lsa-da, qat‘iyatli; Marianna esa do‘stlari tavsiyasi bilan halol va badavlat polkovnikka turmushga

chiqadi) turmush qurishning real shart-sharoitlari ham ko'zda tutilishi kerakligini o'quvchiga uqtiradi.

“Mensfild Park” romanining bosh qahramoni Fanni Prays – Ostin yaratgan eng fojeiy ayol personajlardan biridir. Fanni kambag'al oiladan chiqqan bo'lib, boy qarindoshlari huzurida tarbiya topadi, ya'ni u boylar orasida “mehmon” sifatida yashaydi. Uning jamoadagi maqomi past bo'lib, hatto o'zini xizmatkorlardan ham nochor his etadi. Shu bilan birga, Fanni oliyjanob xulqi, samimiy imoni va odobi bilan boshqa qahramonlardan ajralib turadi. Romanda Fannining katta sinov kutadi: xushro'y Genri Kroufordning unga uylanish taklifi va bu taklifga buvasi Ser Tomasning bosimi ostida rozilik berishga majbur qilinishi bo'ladi. Fanni boy va nufuzli Kroufordga turmushga chiqsa, moddiy jihatdan ta'minlanishi aniq edi, lekin uning qalbi buni yoqlamaydi va uning axloqiy qiyofasiga shubha bilan qaraydi. Bu orqali asarda ayolning shaxsiy tanlov huquqi himoya qilinadi. Bu epizod o'quvchiga og'diriladi: jamiyat foydasi yoki oilaviy bosim emas, balki ayolning vijdoni va his-tuyg'ulari ustuvor bo'lishi kerak. Keyinchalik voqealar Fannining fikri to'g'ri ekanini ko'rsatadi – Genrining axloqi yomonligi oshkora bo'ladi, Fanni esa o'zi sevgan va qadrlagan Edmundga turmushga chiqib, haqiqiy baxtga erishadi. “Mensfild Park” orqali Ostin ayolning ijtimoiy maqomi past bo'lsa-da, axloqiy ustunligi unga hurmat keltirishini va oxir-oqibat jamiyatda munosib o'rin topishiga xizmat qilishini tasvirlaydi.

“Emma” romanining bosh qahramoni Emma Vudxaus adiba personajlari galereyasidagi eng mustaqil va boy ayol obrazidir. Emma – boy dehqonning erkato'y qizi, mulkdor va chiroyli bo'lgani uchun “turmushga chiqmasam ham bo'laveradi”, deb hisoblaydi. U otasi bilan yashayotgan, o'zi xohlagan erkakka tegishi yoki umuman tegmasligi mumkin bo'lgan holatda tasvirlanadi. Shu boisdan, Emma boshqa kimlarnidir turmushga solish bilan qiziqib, mahalliy kishilarning taqdiriga aralashadi: u yaqin dugonasi kambag'al Harriyet Smitni o'z bilganicha tinmay boshqalarga unashtirmoqchi bo'ladi, Harriyetni o'zidan yuqoriroq tabaqali erkakka layoqatli deb, unga vasiylik qiladi. Biroq Emmaning bu tarzdgai birovlar taqdiri bilan o'ynashishi ko'p xato va ovoragarchilikka olib keladi. Asarda

Emmaning xatolari orqali J. Ostin ayolning hayotiy tajriba orttirishi, kamtarlikni o'rganishi zarurligini ko'rsatadi. Emma aslida xushfe'l va oqila qiz bo'lsa-da, o'ziga ortiqcha ishonganidan ba'zi bir behurmatliklarga yo'l qo'yadi, oqibatda munosib tanbeh oladi – uning yaqin do'sti va tanqidchisi bo'lmish Jorj Naytli Emmaning xatolarini to'g'ri ko'rsatadi. Roman davomida Emma o'zining adashgan fikrlarini tan olib, ichki kamolotga erishadi. Oqibatda u Naytli janobga nisbatan haqiqiy muhabbat his etayotganini anglaydi va turmushga chiqishga qaror qiladi. Bu orqali nafaqat sevgi g'alaba qozonadi, balki axloqan va intellektual teng juftlik yuzaga chiqadi. Ushbu obraz orqali J. Ostin jamiyatda ijtimoiy maqomi yuqori, mustaqil ayol ham qoidalar va an'analar doirasida o'z baxtini topishi, lekin boshqalarga nisbatan mas'uliyatli bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Sharq va G'arb adabiyotida gender rollari va an'analarning qiyosiy talqini. Abdulla Qodiriy va Jeyn Ostin asarlaridagi ayol obrazlarini solishtirish orqali Sharq va G'arb jamiyatlaridagi madaniy-an'anaviy tafovutlar va umumiy jihatlar nihoyatda yaqqol namoyon bo'ladi. Avvalo, har ikki muallif ham o'z davri va xalqi hayotini ijtimoiy tarkib toptiruvchi asosiy omil sifatida oila va nikoh munosabatlariga alohida e'tibor qaratgan. "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlarida o'zbek ayolining hayoti ko'proq oila doirasida, mahramlik maqomida kechadi; ayolning baxt-saodati birinchi navbatda, turmush qurishi va oilasiga bog'liq. Jamiyatdagi mavqei ham, afsuski, uning qaysi oilaniki va kimning xotini ekanligi bilan belgilanadi. J. Ostin romanlarida ham ayollar uchun baxt va ijtimoiy muvaffaqiyat ko'p jihatdan nikoh orqali qaror topadi, biroq bu jarayonlarda farqli madaniy an'analar ko'zga tashlanadi. Masalan, o'zbek an'anaviy jamiyatida turmush qurish masalasida qiz bolaning fikridan ko'ra ota-ona qarorlari ustun qo'yilgan, qarshilik qilish esa noma'qul sanalgan. A. Qodiriy nigohicha o'zbek ayollari turmush qurishda o'z juftini tanlash borasida juda kam erkinlikka ega bo'lib, asosan oilaviy-maishiy doirada cheklangan hayot kechirishgan. Angliyada esa qiz bolaning turmush qurishida ona-ota roziligi muhim bo'lsa-da, uning o'zi ham ma'lum bir tanlov va qarshilik bildirish huquqiga ega edi. Shuning uchun J. Ostin asarlarida qahramon ayollar o'ziga nomaqbul sovgini rad etish holatlari

tasvirlanadi. Bu farq ikki madaniyatning ayolga munosabatidagi muhim jiddiy tafovutlardan biridir: sharqona an'anada itoatkorlik va ota-ona so'ziga ko'r-ko'rona bo'ysunish qadrlansa, g'arbda shaxsiy rozilik va ehtirom hisobga olinadi: "O'zbek madaniyatida, Qodiriy tasvirlaganidek, ayollar turmush o'rtog'ini tanlashda ancha cheklangan bo'lib, asosan uy-ro'zg'or ishlari bilan chegaralangan. Aksincha, Ostin qahramonlari jamiyatning ma'lum ijtimoiy me'yorlari bilan chegaralangan bo'lsa-da, ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yishda va erkin turmush qurishda nisbatan kengroq imkoniyatlarga ega bo'lgan" [2].

Gender tenglik tushunchasi nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, har ikki adib o'z asarlari orqali jamiyatning bu boradagi nomuvofiq qoidalarini tanqid qilgan. J. Ostin ingliz jamiyatidagi turmush quruvchi ayollarga nisbatan tajovuzkor kamsitishlarni o'tkir til bilan fosh etgan; u qahramonlarining baxtli turmushiga to'sqinlik qiluvchi qonunlarni (mulk merosining o'g'ilga o'tishi, xotinning huquqsizligi) hazil va mubolag'alar orqali o'quvchiga yetkazadi. A. Qodiriy esa o'z asarlarida an'ana va zamon to'qnashuvini, ayniqsa ayol qismatini og'irlashtiruvchi omillarni ko'rsatadi. Ko'pxotinlikni tasvirlar ekan, bunda jabr ko'ruvchi ko'proq ayol ekanini ta'kidlaydi. Shu jihatdan, har ikkala yozuvchi o'z romanlarini ma'rifatparvarlik ruhida yaratgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Muhimi, ikkala adib ham o'zlarining betakror ayol obrazlari orqali jamiyatning madaniy an'analari va o'zgarishlarga muhtoj tomonlarini aks ettiradi.

Ingliz va o'zbek adabiyotida ayol obrazining shakllanishi ikki xil madaniy muhit va tarixiy kontekst ta'sirida ro'y bergan bo'lsa-da, ularni bog'lab turuvchi umumiy jihatlar talaygina. Jeyn Ostin va Abdulla Qodiriy asarlari tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikkala yozuvchi ham ayol taqdiriga bee'tibor qolmagan, balki uni o'z davri jamiyatining muhim mavzusi sifatida ilgari surgan. Har ikki yozuvchi ham ayol obrazlari orqali jamiyatni tanqid qilish va isloh etish g'oyalarini ilgari surgan. Ularning qahramonlari o'zining matonati, aqli va muhabbati bilan jamiyat tazyiqlariga qarshilik ko'rsatadilar.

J. Ostinning Elinor, Fanni, Emma kabi obrazlari o'z aqli va yuragi amriga quloq solgan holda shaxsiy hayotda baxtga erishish yo'lini tanlashgan.

A. Qodiriyning Kumush, Ra'no kabi obrazlari esa sharqona ibrat, sabr va sadoqatni o'zida mujassam etgan holda, o'z taqdirlarining fojeiy bo'lsa-da sharaflilik kechishini namoyon etishgan. Ikkala adabiyotda ham ayol – muhabbat, oila va vatan kabi tuyg'ularni ifoda etuvchi timsol sifatida buyuk qadriyat sifatida talqin etiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, madaniy an'analar va gender identifikatsiyasi ayol obrazining badiiy shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayollarga nisbatan jamiyat qoidalari qanchalik turlicha bo'lmasin, ularning baxtga, erkinlikka va hurmatga intilishi universal insoniy xususiyatdir. Jeyn Ostin va Abdulla Qodiriy asarlaridagi ayollar portretlari tarixiy va milliy kolorit bilan bog'liq holda yaratilgan, biroq ularning olami va muammolari bugungi o'quvchi uchun ham ta'sirchan va o'zaro hamohang mazmun kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dolimov U. Abdulla Qodiriy (1894-1938). [Elektron resurs] // Ziyouz.uz. – URL: <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/ulugbek-dolimov-abdulla-qodiriy-1894-1938/> (data o'rnatilgan: 11.08.2025).
2. Ikramova K. The Role of Customs and Rituals in Literary Works of Jane Austen and Abdulla Qodiriy. *DISCPSPE*, 2025, №1, 113-115 p.
3. Johnson M. Worlds Apart, Words Aligned: Unveiling the Literary Landscapes of Jane Austen and Abdulla Qodiriy//Ithy.com. URL: <https://ithy.com/article/austen-qodiriy-literary-comparison-67zspjd2> (murojaat sanasi: 07.08.2025).
4. Raximova I.R., Raximova U.S. “O'zbek-ingliz adabiyotida ayol siymosining qiyosiy tahlili.” *Ekonomika i sotsium*, №10 (125)-2, 2024. – 856-863 betlar.
5. Sainazarova M. An Artistic Depiction of English and Uzbek National Traditions // The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – Vol. 2, Issue 10. – P. 229-233.
6. Qodiriy A. O'tkan kunlar; Mehrobdan chayon: Ro'monlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. – 656 b.) 135-b.

7. Qo'shjonov M. Mohiyat va badiiyat. (Adabiy-tanqidiy maqolalar.) - Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977. - 232 b.